

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOROTOV ALISHER XOMIDOVICH

**XUSUSIY MULKNING HUQUQ VA KAFOLATLARINI
ISHONCHLI HIMOYA QILISHNI TA’MINLASH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Borotov Alisher Xomidovich

Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash.....3

Боротов Алишер Хомидович

Обеспечение надежной защиты прав и гарантий частной собственности.....21

Borotov Alisher Khomidovich

Ensuring reliable protection of the rights and guarantees of private property.....40

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of publications 44

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHI
HUZURIDAGI SUDYALAR OLIY MAKTABI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

BOROTOV ALISHER XOMIDOVICH

**XUSUSIY MULKNING HUQUQ VA KAFOLATLARINI
ISHONCHLI HIMOYA QILISHNI TA’MINLASH**

12.00.03 – Fuqarolik huquqi. Tadbirkorlik huquqi.
Oila huquqi. Xalqaro xususiy huquq

**YURIDIK FANLAR BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.PhD/Yu14 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Imomov Nurullo Fayzullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azizov Xudoyqul Tojiyevich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Choriyev Murodjon Shokirjonovich
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi IIV
Akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi huzuridagi PhD.37/27.02.2020.Yu.107.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ soat “___” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100047, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel: (+99855) 501-01-88, faks: (+99855) 501-01-89, e-mail: sudyalarolimaktabi@umail.uz, sudyalaroliymaktabi@exat.uz).

Dissertatsiya (PhD) bilan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (manzil: 100047, Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Cho‘ponota ko‘chasi, 6-uy. Tel: (+99855) 501-01-89)

Avtoreferat 2024 yil “___” _____ da tarqatildi.

(2024-yil “___” _____ “___”-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.I.Nasriyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

O.B.Shamsiddinova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

F.H.Otaxonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, uni har tomonlama samarali amalga oshirish, huquqlarni kafolatlash va himoya qilishga alohida e'tibor berib kelinadi. Mulkdorlik maqomidan kelib chiqib, kuzatilayotgan huquqiy tadqiqot tendensiyalari mulkdorning himoya huquqini kafolatlash masalasini tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. The Heritage Foundation ma'lumotlariga ko'ra, 2011-yilda 15 ball, 2020-yilda esa, eng yuqori ko'rsatkich – 59 bilan baholangan¹. So'nggi yillarda esa, ushbu ko'rsatkich birmuncha pasaygan va 32 ball bilan izohlangan. Bundan ko'rinadiki, bugungi kunda dunyo miqyosida xususiy yuridik shaxslar va fuqarolarning xususiy mulkini himoya qilish, bunda davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan sodir etiladigan noqonuniy xatti-harakatlar, turli firibgarlik va reyderlik sxemalari orqali mulkdorning huquqlarini o'zlashtirishga qarshi samarali qonunchilik mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratiladi.

Jahonda mulkdor huquqlarini ta'minlashdagi dolzarb yo'nalishlar sifatida raqamli muhitda mulkiy huquqlarning amal qilishi va uni himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash usullari, sohadagi milliy va xorijiy mamlakatlar qonunchiligini ilmiy tadqiq etish asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Biroq butun dunyoda mulkdor huquqlari ustuvorligini ta'minlab bo'lmayapti. Zo'ravonlik, korrupsiya va jazosizlik butun dunyo bo'ylab millionlab insonlarga ta'sir qilmoqda². Ayniqsa, internet firibgarligining ortib borishi, bank kartalaridan pul mablag'larining noqonuniy yechib olinishi, internet ashyolarning huquqiy maqomi va egasining manfaatlarini himoya qilish borasida tadqiqotlar o'tkazishning dolzarbligi ortib bormoqda.

Mamlakatimizda xususiy mulkning huquq va kafolatlarini himoya qilinishida o'ziga xos qonunchilik bazasi yaratilgan hamda muayyan huquqni qo'llash amaliyoti shakllangan bo'lsa-da, xususiy mulkning daxlsizligi va kafolatlarini amalda ta'minlash bilan bog'liq sezilarli darajadagi muammolar ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining qonunda belgilangan tartib-taomillarni chetlab o'tib, mol-mulkni mulkdordan noqonuniy olib qo'yishi (snos), mulkdordan olib qo'yilgan xususiy mol-mulkning qiymatini to'lamaslik yoki to'lashni kechiktirish, yetarli darajada kompensatsiya bermaslik, xususiy mulkni himoya qilishga oid sud qarorlarini bajarmaslik va ularga pisandasiz munosabatda bo'lish, xususiy mulkdor ishlariga o'zboshimchalik bilan aralashish kabi xususiy mulk huquqi va fuqarolk huquqining bosh negizlarini buzish holatlari ko'p uchramoqda. Bu esa, o'z navbatida, xususiy mulk kafolatlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini ishlab ketish yo'llarini qonunchilik darajasida yanada aniq va to'liq ifodalash zaruratini ko'rsatadi. Sohada muayyan darajada islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa ham, mulkdor huquqlarining samarali kafolatlanishi,

¹ https://theglobaleconomy.com/Uzbekistan/herit_property_rights/.

² <https://worldjusticeproject.org/rule-of-law-index/downloads/WJPIIndex2022.pdf> 8-b.

tadbirkorlik faoliyati subyektlari, investorlar huquqlarining qay darajada ta'minlanganligi, huquqni himoya qilishda sudlarning tutgan o'rnini aniqlashni taqozo etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (FK, 1996), "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi (1990), "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi (2012), "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi (2022), "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi (2022) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-son, "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonlari va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlarining amalga oshirilishida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalari mamlakatimiz sivilist olimlaridan H.Rahmonqulov, I.B.Zokirov, F.X.Sayfullayev, O.Oqyulov, Sh.N.Ro'zinazarov, D.Karaxodjayeva, X.T.Azizov, M.Baratov, N.Imomov, V.Y.Ergashev, B.R.Topildiyev, J.I.Boboyev, D.A.Chiniyev, A.Muxammadiyev, N.Ashurova, U.Shoraxmetova, M.Boltayev, Q.Mexmonov, Y.B.Saipova, Z.Amonov, Sh.SH.Bakayev, K.Kuchkinovlar³ tomonidan o'rganilgan.

Shuningdek, mazkur sohada MDH davlatlari olimlaridan Ye.A.Suxanov, A.P.Sergeyev, Y.K.Tolstoy, V.Vitryanskiy, M.Braginskiy va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xorijlik olimlardan esa Yeazell, C.Stephen, C.Joanna, Schwartz, Maureen Carroll, M.L.Minow, M.S.Brodin va boshqa olimlar xususiy mulkni himoya qilish asoslarini tadqiq etgan.

Biroq yuqoridagi olimlarning tadqiqot ishlari asosan mulk huquqi bilan bog'liq masalalarning umumiy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Shu sababli xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalari bo'yicha tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan va ilmiy-tadqiqotning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

³ Ushbu va boshqa olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash bilan bog'liq ilmiy-nazariy va amaliy muammolarni aniqlash hamda qonunchilikni takomillashtirishga doir taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xususiy mulkning huquq va kafolatlari tushunchasi va o'ziga xos jihatlarini tadqiq qilish;

xususiy mulk huquqi kafolatlari tizimining ilmiy-amaliy tahlilini amalga oshirish;

internet ashyolarga nisbatan xususiy mulk va uning maqomini belgilash muammolarini tahlil qilish;

xususiy mulkni ishonchli himoya qilishning umumiy va maxsus usullarini aniqlash;

xususiy mulk huquqi himoya qilinishi usullarini amalga oshirish muammolarini tadqiq etish;

xususiy mulk huquqi va "yashirin iqtisodiyot" dorasida kafolatlarni kuchaytirish zarurati va shartlarini tahlil etish;

xususiy mulkni himoya qilishga doir xorijiy tajribani qiyosiy tahlil etish;

xususiy mulkni himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari tadqiq etish.

Tadqiqotning obyekti xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik normalari hamda ilmiy-nazariy jihatlar va ushbu sohadagi huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy va tizimli, analiz va sintez, qiyosiy-huquqiy tahlil, normativ-huquqiy va amaliy tahlil, umumlashtirish, mantiqiylik kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mulkdorga yetkazilgan zararining o'rnini uni yetkazgan shaxs tomonidan qonunchilikka muvofiq to'la hajmda qoplanishi lozimligi asoslab berilgan;

mulkdorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilishi, yani qonunchilikdagi xususiy mulk huquqi bilan bog'liq barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga hal etilishi asoslantirilgan;

davlat organlarining va boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarilishi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararining o'rnini ushbu subyektlar tomonidan qoplanishi kerakligi asoslab berilgan;

davlat organlari va boshqa organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining aybi bilan yetkazilgan zararining o'rnini qoplash

sud qarori bilan shu mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilar iborat:

xususiy mulk huquqini himoya qilish kafolatlari tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqiladi. Huquqiy kafolatlar ayni paytda ularni ta’minlovchi davlat organlariga hamda ushbu organlarning mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli majburiyatlar hamda javobgarlikni yuklashi haqidagi fikrlar asoslantiriladi va yakunda mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipining amal qilish zarurati ishlab chiqilgan;

xususiy mulk huquqini himoya qilishning o’ziga xos usullari sifatida “qonunchilik barqarorligini ta’minlash”, “mol-mulkning ayrim turlariga bo’lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o’zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro’yxatidan o’tkazish” tahlil qilinib, pirovardida mulkdorga yetkazilgan zararining o’rni to’la hajmda qoplanishi taklif qilingan;

xususiy mulkka oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning barqarorligini ta’minlash orqali mulkdorlar manfaatlarini ta’minlash, xususiy biznesni yo’lga qo’yish hamda iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishish mumkin. Himoyaning mazkur usuli bevosita xususiy mulk egalari tomonidan qonunchilik bilan tanishish, o’zlariga tegishli mol-mulkka oid normalarni amalda qo’llash hamda zarur hollarda huquqlarini amalga oshirish ko’nikmalar hosil bo’lishiga zamin yaratadi. Shu sababli xususiy mulkka oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni o’zgartirish zaruriy hollarda, mulkdor manfaatlarini yanada samarali ta’minlash hamda mulk huquqini himoya qilish, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sharoit yaratish uchungina amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, ishda mulkdorga yetkazilgan zararining o’rni “bosh delikt tamoyiliga asoslangan” holda qoplanishi kerakligi haqidagi taklif ishlab chiqilgan;

xorijiy mamlakatlar tajribasi, huquqni qo’llash-sud amaliyotidan kelib chiqib, zararining o’rnini qoplash sud qarori bilan mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkinligi huquqiy jihatdan asoslantirib berilgan. Xususiy mulkni himoya qilishga oid nizolarni ko’rib chiqish va hal qilishda turli suiiste’mollik va noqonuniy aralashuvlarning oldini olish maqsadida virtual sudlovlikni joriy etish taklifi ilgari surilgan;

FKning 231-moddasiga negator da’voni tatbiq etish bo’yicha qo’shimchalarni kiritish taklifi asoslantirilgan. “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi Qonunga “Mulkdorga qarashli bo’lgan ko’chmas mulk obyektining qiymati kamayishi bilan unga zarar yetkazilganda uning huquqlari kafolatlari” nomli 19¹-moddani kirirtish asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo’llanilgan usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, xalqaro tajriba va milliy qonunchilik hujjatlarining o’zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosa, taklif-tavsiyalardan kelgusi ilmiy faoliyatda, norma ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, fuqarolik qonunchiligining ayrim normalarini sharhlashda, fuqarolik huquqi, mulk huquqi fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligidadir.

Tadqiqot natijalaridan sohaga doir norma ijodkorligida, "Fuqarolik huquqi", "Mulk huquqi" fanlarini o'qitishda, ushbu fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini yaratishda, ma'ruza matnlari, fan dasturlarini tuzishda, ilmiy-tadqiqot ishlarida hamda fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

mulkdorga yetkazilgan zararning o'rnini uni yetkazgan shaxs tomonidan qonunchilikka muvofiq to'la hajmda qoplanishi lozimligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 21.04.2021-yildagi O'RQ-683-son Qonunning 214-moddasi to'rtinchi qismini ishlab chiqishda, ya'ni "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" (24.09.2012-y., O'RQ-336-son)gi Qonunning 6-moddasi ikkinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 28-iyundagi №04/2-10/39-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mulkdorga yetkazilgan zarar qoplanishini huquqiy ta'minlashga xizmat qilgan;

mulkdorning davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarida mulkdor huquqlarining ustuvorligi prinsipi amal qilishi, ya'ni qonunchilikdagi xususiy mulk huquqini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf etib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar mulkdorning foydasiga talqin etilishi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 21.04.2021-yildagi O'RQ-683-son Qonunning 214-moddasi beshinchi qismini ishlab chiqishda, ya'ni "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" (24.09.2012-y., O'RQ-336-son)gi Qonunning 7-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 28-iyundagi №04/2-10/39-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mulkdor huquqlarining ustunligini ta'minlashga xizmat qilgan;

davlat organlarining va boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining yoki ular mansabdor shaxslarining g'ayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi), shu jumladan qonunchilikka muvofiq bo'lmagan hujjat chiqarilishi natijasida mulkdorga yetkazilgan zararning o'rnini ushbu subyektlar tomonidan qoplanishi kerakligi haqidagi taklif "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 21.04.2021-yildagi O'RQ-683-son Qonunning 214-moddasi sakkizinchi qismini ishlab chiqishda, ya'ni "Xususiy

mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" (24.09.2012-y., O'RQ-336-son)gi Qonunning 14-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 28-iyundagi №04/2-10/39-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mulkdorga zarar yetkazuvchini aniqlashga va zararni to'la hajmda qoplatishga xizmat qilgan;

davlat organlari va boshqa organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mansabdor shaxslarining aybi bilan yetkazilgan zararning o'rnini qoplash sud qarori bilan shu mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanishi mumkinligi haqidagi taklif O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida" 21.04.2021-yildagi O'RQ-683-son Qonunning 214-moddasi sakkizinchi qismini ishlab chiqishda, ya'ni "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida" (24.09.2012-y., O'RQ-336-son)gi Qonunning 14-moddasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2022-yil 28-iyundagi №04/2-10/39-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy qilinishi mulkdorga zarar yetkazuvchini manzilliligini aniqlashga, zararni qoplatishga va byudjet mablag'lari talon-taroj bo'lishini oldini olishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan 4 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy maqola (jumladan, 3 tasi xorijda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkiz paragrafdan iborat uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 140 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzuning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, uning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Fuqarolik huquqida xususiy mulkning huquq va kafolatlari ilmiy-nazariy tavsif**" deb nomlangan birinchi bobida xususiy mulkning huquq va kafolatlari tushunchasi va o'ziga xos jihatlari, xususiy mulk huquqi kafolatlari tizimining ilmiy-amaliy tahlili, internet ashyolarga nisbatan xususiy mulk va uning maqomini belgilash muammolari kabi masalalar tahlil qilingan.

Bugungi kunga kelib, xususiy mulk obyektlarini noqonuniy o'zgartirish, o'zlashtirish va buning natijasida mulkdorlarning subyektiv huquqlarining to'g'ri va

real kafolatlari yo'qligi muammosi mavjud. Ushbu muammolar mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazishning ishonchsiz tizimi, shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari va ko'chmas mulk masalalarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasidagi turli bo'shliqlar tufayli mavjud. Mulkchilik munosabatlarini huquqiy tartibga solishni o'rganishga ko'plab huquqiy ishlanmalar bag'ishlanganiga va individual tadqiqot natijalari mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida o'z aksini topganiga qaramay, xususiy mulk huquqining qonuniy kafolatlari masalasi yetarli darajada emas. Ishonchli, huquqiy kafolatlar yordamida jismoniy shaxslarning xususiy mulk huquqlarini amalga oshirishdagi muammolarni bartaraf etishning samarali mexanizmini aniqlashning o'zi qonun ijodkorligining muhim vazifasidir.

Integratsiya jarayonlarini hisobga olgan holda, xususiy mulk huquqining huquqiy kafolatlari masalasi nafaqat ilmiy-nazariy, balki huquqiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. Xususiy mulk huquqining kafolatlari tizimi ham huquqiy, ham shartnomaviy kafolatlarni birlashtiradi, biroq bunda turli iyerarxiyalarning qonunchilik hujjatlarida aks ettirilgan huquqiy kafolatlariga ustunlik beriladi.

Dissertatsiyada xususiy mulkning huquq va kafolatlarini himoya qilishga oid bir qator huquqshunos olimlar (V.V.Starjenetskiy, V.Andreytsev, V.Grebennikov, L.Shennikova, A.Klimenko, V.Y.Ergashev)ning fikrlari tahlil qilinib, xususiy mulkning huquq va kafolatlarini tushunish va qonunchilik tizimida ularni aniqlash va talqin etish muayyan qoidalarga hamda doktrinalarga asoslanishi lozim, bunda xususiy mulkning daxlsizligi kategoriyasi, xususiy mulk huquqining davlat tomonidan ta'minlanishi, xususiy mulkdorning o'z huquqlarini o'zi himoya qilishi alohida o'rin tutadi, degan xulosaga kelinadi.

Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlillar natijasida xususiy mulk huquqini himoya qilish kafolatlari tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqiladi. Shuningdek, muallif tomonidan huquqiy kafolatlar ayni paytda ularni ta'minlovchi davlat organlariga hamda ushbu organlarning mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli majburiyatlar hamda javobgarlikni yuklashi haqidagi fikrlar asoslantiriladi.

Dissertatsiyada xususiy mulk huquqi kafolatlari borasidagi huquqshunos olimlar (V.Pogorelko, V.Kopeychikov, V.Nersesyans, O.Patyulin, A.Skakun)ning fikrlari o'rganilib, yuridik kafolatlarining uchta konsepsiyasi keltiriladi. Binobarin, yuridik (maxsus) kafolatlar fuqarolarning huquq va erkinliklari amalga oshiriladigan, himoya qilinadigan, muhofaza qilinadigan, huquq va erkinliklarning buzilishi bartaraf etiladigan, buzilgan huquqlar tiklanadigan barcha huquqiy vositalar va usullarni qamrab oladi.

Tadqiqotchining fikricha, fuqarolik-huquqiy kafolatlar subyektlari asosan kafolatlangan huquqiy aloqaning ishtirokchilari hisoblanadi. Iqtisodiyotga fuqarolik huquqini joriy etar ekan, davlat haqiqatan ham o'z rolini zaiflashtiradi, chunki u iqtisodiyotni ko'p jihatdan o'zini o'zi boshqarishga o'tkazadi. Huquqni amalga oshirish uning mazmunini tashkil etuvchi harakatni bajarish orqali amalga oshiriladi, bundan kelib chiqadiki, fuqarolik-huquqiy kafolatlar shaxslarning subyektiv huquqlari va majburiyatlarining mazmunini tashkil etadi.

Fuqarolik-huquqiy kafolatlari xususiyatlarining yana bir guruhi quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Fuqarolik-huquqiy kafolat bilan yaratilgan ijtimoiy

rishtalar har doim subyektlar tarkibining aniqligi bilan tavsiflanadi. Agar boshqaruv munosabatlarida davlat o‘z organlari shaxsining ishtirokchisi bo‘lsa va fuqarolik protsessual munosabatlarida sud har doim majburiy ishtirokchi bo‘lsa, fuqarolik huquqining predmetini tashkil etuvchi huquqiy munosabatlarda ishtirokchilar asosan fuqarolik muomalasi subyektlari – jismoniy shaxslardir. Shunday qilib, fuqarolik-huquqiy kafolatlar bo‘yicha ijtimoiy aloqa subyektlari asosan fuqarolik muomalasi subyektlari hisoblanadi.

Xususiy mulk huquqi egalik qilish (own), foydalanish (use), tasarruf etish (dispose) hamda himoya qilish kabi harakatlarni amalga oshirishdagi erkinlik va mustaqillikda namoyon bo‘lar ekan, bunda xorijiy mamlakatlarda keng qo‘llaniladigan “mulkning ijtimoiy funksiyasi prinsipi”dan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Zero, xususiy mulk “jamiyatning umumiy ne‘matlari (manfaatlariga) xizmat qilishi” mulkdor zimmasiga yuklanadi va himoya qilishda ushbu prinsip inobatga olinishi lozim.

Dissertatsiyada keltirilishicha, internet ashyolar fuqarolik huquqlarining obyektlari sifatida bevosita mulkiy huquqning turi sifatida baholanishi mumkin. Zero, mulkiy huquqlar mohiyatiga ko‘ra “jismaniy ifodaga ega bo‘lmagan” hamda egasiga muayyan foyda keltiradigan talablar sifatida ko‘riladi. Ishda internet ashyolarning xususiy mulk obyektlari sifatidagi maqomiga oid olimlar (T.G.Katkova, Ye.O.Xaritonov, A.I.Xaritonova, N.Kong, Park Jungsoo, N.Crespi, G.Lee, Lu Yan, Yan Zhang, Laurence T. Yang, Huansheng Ning)ning fikrlari tahlil qilinib, FKning 86-moddasiga “Internet ashyolar”ni kiritish va unga oid qoidalarni FKning 91¹-modda sifatida ifodalash taklifi asoslantiriladi.

“Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash usullari” – deb nomlangan tadqiqot ishining ikkinchi bobida xususiy mulkni ishonchli himoya qilishning umumiy va maxsus usullari, xususiy mulk huquqi himoya qilish usullarini amalga oshirish muammolari, xususiy mulk huquqi va “yashirin iqtisodiyot”: kafolatlarni kuchaytirish zarurati va shartlari kabi masalalar o‘rganilgan.

Dissertatsiyada xususiy mulk huquqini himoya qilishga oid olimlar (D.M.Karaxodjayeva, Ye.A.Kononenko, A.S.Bikov, L.Fuller, Bruno leoni, A.P.Zayets)ning fikr-mulohazalari tahlil qilinib, mulk huquqini himoya qilish mulkdorning o‘z mol-mulkiga nisbatan huquqlarini ta’minlash hamda ularni amalga oshirish imkoniyatini taqdim etishga nisbatan har qanday to‘sqinliklar va qonun buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan choralar yig‘indisi hisoblanishi asoslantiriladi.

Tadqiqot ishida xususiy mulk huquqini himoya qilishning o‘ziga xos usullari sifatida “qonunchilik barqarorligini ta’minlash”, “mol-mulkning ayrim turlariga bo‘lgan xususiy mulk huquqining vujudga kelganligini, o‘zgarganligini va bekor qilinganligini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish” tahlil qilinadi. Muallifning fikricha, xususiy mulkka oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikning barqarorligini ta’minlash orqali mulkdorlar manfaatlarini ta’minlash, xususiy biznesni yo‘lga qo‘yish hamda iqtisodiy barqaror rivojlanishga erishish mumkin bo‘ladi. Qolaversa, himoyaning mazkur usuli bevosita xususiy mulk egalari tomonidan qonunchilik

bilan tanishish, o‘zlariga tegishli mol-mulkka oid normalarni amalga qo‘llash hamda zarur hollarda huquqlarini amalga oshirish ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga ham zamin yaratadi. Shu sababli xususiy mulkka oid munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilikni o‘zgartirish zaruriy hollarda, mulkdor manfaatlarini yanada samarali ta‘minlash hamda mulk huquqini himoya qilish, mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sharoit yaratish uchungina amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlillar asosida “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasini yangi tahrirda ifodalash taklifi asoslantiriladi.

Fuqarolik huquqida an‘anaviy ravishda Rim huquqidan ma‘lum bo‘lgan ashyoviy-huquqiy da‘volar alohida nazarda tutilgan: vindikatsion (o‘zganing noqonuniy egaligidan talab qilib olish); negator (egalik qilishdan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmagan, mulkdan foydalanishga bo‘lgan to‘sqinliklarni bartaraf etish). Dissertatsiyada FKning 231-moddasiga negator da‘voni tatbiq etish bo‘yicha qo‘shimchalarni kiritish taklifi asoslantirilgan.

Muallifning fikricha, “hujjatlarga asoslangan korporativ mulkchilik munosabatlarida” xususiy mulkdor manfaatlarini ta‘minlash ko‘plab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli korporativ mol-mulkda ulush egasi – xususiy mulkdorning huquqlarini himoya qilishda “kafolatlangan ulush” qoidasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi – **“Xususiy mulkni himoya qilishning xorij tajribasi va takomillashtirish istiqbollari”**ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda xususiy mulkni himoya qilishda xorijiy tajriba: adolatlilik, maqsadlilik, samaradorlik, xususiy mulkni himoya qilish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari tahlili amalga oshirilgan.

Xorijiy huquqiy tizimlarda mulk huquqi turli xil vositalar bilan himoya qilinadi: jinoyat huquqi, ma‘muriy, fuqarolik huquqi va boshqalar. Biroq fuqarolik huquqi mulkdorga uning buzilgan huquqlarini tiklashni, uning huquqlariga turli xil tajovuzlarning salbiy mulkiy oqibatlarini bartaraf etishni ta‘minlaydigan moddiy va huquqiy himoya usullarini taqdim etadi. Xorijiy davlatlar (Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH va boshqalar) doktrinasida mulk huquqini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy usullari majburiyat-huquqiy va ashyoviy-huquqiy turlarga bo‘linadi.

Muallifning yozishicha, xorijiy tajribani hisobga olgan holda, ro‘yxatga olish organlari uchun – raqamli texnologiyalar yordamida mulkdorni ularga tegishli mol-mulk bilan amalga oshirilgan har qanday bitimlar, shuningdek ko‘chmas mulk bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan har qanday operatsiyalar to‘g‘risida xabardor qilish majburiyatini joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bundan tashqari, ro‘yxatga olish organlarining noto‘g‘ri ro‘yxatga olish uchun javobgarligini joriy etish mumkin. Fikrimizcha, ushbu qoidalar mulk huquqini himoya qilishning yangi turi bo‘lib xizmat qiladigan axborot usuliga birlashtirilishi mumkin, bunda mulkdor yurisdiksiya organlaridan aniq, o‘zlarini qiziqtirgan ma‘lumotlarni talab qilish huquqini oladi, davlat organlariga esa, o‘z navbatida, qonun asosida axborot berish majburiyati yuklatiladi.

Tadqiqot ishida mulk huquqining prezumtsiyasiga oid qoidalarni FKning 166¹-moddasi sifatida kiritish, FKning 172-moddasini ikkinchi-to'rtinchi qismlari bilan to'ldirish, FKning 228-moddasini "Mulk huquqini himoya qilish asoslari" deb nomlash va tegishincha amaldagi tahrirning 228-moddasini 228¹-modda deb hisoblash, FKni "Mulk huquqini tan olish" nomli 231¹-modda bilan to'ldirish, "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdor huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunga "Mulkdorga qarashli bo'lgan ko'chmas mulk obyektining qiymati kamayishi bilan unga zarar yetkazilganda uning huquqlari kafolatlari" nomli 19¹-moddani kiritish hamda qonunning 9-moddasiga "buzadigan hujjati" iborasidan keyin "mulkdor da'vosiga ko'ra" jumlasini kiritish va ushbu moddani ikkinchi qism bilan to'ldirish zarurati asoslantirilgan.

Amalga oshirilgan tahlillar asosida "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning 6, 7, 14-moddalariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish zarurati asoslab berilgan.

XULOSA

Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash masalalari tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Xususiy mulk huquqini himoya qilish kafolatlari tushunchasiga quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin:

Xususiy mulk huquqini himoya qilish kafolatlari deganda, xususiy mulkdorning o'z mol-mulkiga nisbatan huquqlarni olish, rasmiylashtirish yoki ro'yxatdan o'tkazish, ularni amalga oshirish va ushbu huquqlarga nisbatan har qanday buzilishlarni bartaraf etish hamda buzilgan huquqlarni tiklashga qaratilgan qonunchilikda belgilangan imkoniyatlar, vositalar, usullar va mexanizmlar yig'indisi tushuniladi.

2. Kafolatlar ayni paytda ularni ta'minlovchi davlat organlariga hamda ushbu organlarning mansabdor shaxslariga nisbatan tegishli majburiyatlar hamda javobgarlikni yuklaydi. Har qanday holatda ham davlat organi fuqarolarga tegishli xususiy mulk huquqi buzilishiga qaratilgan xatti-harakatlarni bartaraf etishi yoki ularning oldini olish choralarini ko'rish zarur. Bunda tegishli xususiy mulkdorning davlat organiga o'z mol-mulkini yoki unga bo'lgan huquqini himoya qilishni so'rab murojaat qilishi talab etilmaydi. Shunday ekan, xususiy mulk huquqining kafolatlari deyilganda faqat xususiy mulkdorga qonunchilik tomonidan berilgan himoya usullari, vositalari yoki mexanizmlari tushunilmasligi lozim. Bunday tushunish ushbu kategoriyaga bir tomonlama yondashuvga sabab bo'ladi. Bu to'liq bo'lishi uchun esa, albatta, davlat organlari va mansabdor shaxslarning bu boradagi majburiyatlari va javobgarliklarini ham belgilash talab etiladi.

3. Xususiy mulkning huquq va kafolatlarini himoya qilish qonunchilikdagi ishonchli usullar hamda ularni qo'llashning samarali mexanizmlari nazarda tutilganligi bilan belgilanadi. Biroq qonunchilikda belgilangan xususiy mulk huquqini himoya qilishga oid har qanday usul yoki mexanizm sudning mustaqilligisiz amalga oshmaydi va kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli, xususiy

mulkni himoya qilishga oid nizolarni ko'rib chiqish va hal qilishda turli suiiste'mollik va noqonuniy aralashuvlarning oldini olish maqsadida virtual sudlovlikni joriy etish o'rinli bo'lar edi.

4. Xususiy mulk huquqi egalik qilish (own), foydalanish (use), tasarruf etish (dispose) hamda himoya qilish kabi harakatlarni amalga oshirishdagi erkinlik va mustaqillikda namoyon bo'lar ekan, bunda xorijiy mamlakatlarda keng qo'llaniladigan "mulkning ijtimoiy funksiyasi prinsipi"dan kelib chiqish lozim bo'ladi. Zero, xususiy mulkning "jamiyatning umumiy ne'matlari (manfaatlari)ga xizmat qilishi" yuki mulkdor zimmasiga yuklanadi va himoya qilishda ushbu prinsip inobatga olinishi lozim.

5. Yuridik kafolatlar tushunchasini aniqlash bo'yicha bildirilgan fikrlarni asosan uchta konsepsiyaga birlashtirish mumkin:

- yuridik kafolatlar – bu inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va burchlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan maxsus huquqiy vositalar, shartlar majmui;

- yuridik kafolatlar deganda, huquq va erkinliklarni amalga oshirish tartibi, shuningdek ularni himoya qilish va muhofaza qilishni to'g'ri tartibga solish orqali amalga oshirishni ta'minlaydigan prinsiplar va normalar tushuniladi;

- yuridik kafolatlar ostida fuqarolarning subyektiv huquqlarini amalda realizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan inson va fuqaro huquqlarini ta'minlash, amalga oshirish, himoya qilish va muhofaza qilish yotadi.

6. Xususiy mulkning yangi obyektlarini himoya qilish ham bugungi kunda alohida dolzarflik kasb etadi. Chunki, raqamli huquqlar, internet ashyolar, virtual mol-mulk kabi yangi turdagi fuqarolik huquqining obyektlariga nisbatan tegishli qonunchilik rejimini ishlab chiqish va shu orqali huquq egalarining manfaatlarini himoya qilish lozim. Zero, ushbu obyektlarga nisbatan huquq egasining – xususiy mulkdor sifatidagi huquqlarini himoya qilishda yangi himoya usullarini ishlab chiqish va "Internetda ro'yxatdan o'tganlik" prinsipi asosida himoyani amalga oshirish mumkin bo'ladi.

7. Bugungi kunda pul mablag'larining xususiy mulk obyekti sifatidagi muomalasi yangi tus va mazmun kasb etmoqda hamda rivojlanib bormoqda. Elektron hamyon, onlayn-to'lov, kriptovalyuta, bank kartalari, keshbek kabi yangidan-yangi jisimsiz pul mablag'larining ko'rinishlari keng qo'llanilmoqda. Ayni paytda bugungi milliy doktrinada ushbu obyektlarni mulkiy huquq obyekti sifatida talqin etish qabul qilingan. Biroq bunday yondashuv ko'p ham o'rinli emasday ko'rinadi. Zero, jisimsiz pul mablag'lariga nisbatan mulkdor huquqlarini himoya qilishda asosiy majburiyatni xizmat ko'rsatuvchi bankning zimmasiga yuklash ham to'g'ri bo'lmaydi. Shunday ekan, jisimsiz pul mablag'lariga nisbatan xususiy mulk huquqlarini ta'minlashning institutsional tizimlarini yaratish, tegishli fond tashkil etish hamda har bir amalga oshirilgan operatsiyalardan muayyan foizlarni ushbu fondga o'tkazish orqali xususiy mulk huquqini himoya qilish mumkin.

8. Milliy sivilistik doktrinada shakllangan xususiy mulk huquqini himoya qilishning ashyoviy-huquqiy, majburiyat-huquqiy, turli institutlarda ifodalangan usullar hamda davlat organlarining huquqqa xilof harakatlarini qo'llamaslikning

bugungi zamonaviy xususiy mulkchilik munosabatlariga mos kelmasligini ta'kidlash lozim. Bunda reyderlik, virtual firibgarlik kabi xususiy mulkni noqonuniy egallab olishda yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy usullar samarali himoyani taqdim eta olmaydi. Qolaversa, xususiy mulkni himoya qilishga nisbatan yuqorida sanab o'tilgan salbiy chaqiriqlarga nisbatan an'anaviy fuqarolik-huquqiy himoya bilan birga, jinoiy-huquqiy va ma'muriy-huquqiy usullarni uyg'unlikda qo'llash ham kutilgan natijani bermaydi. Zero, "hujjatlarga asoslangan korporativ mulkchilik munosabatlarida" xususiy mulkdor manfaatlarini ta'minlash ko'plab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu sababli, korporativ mol-mulkda ulush egasi – xususiy mulkdorning huquqlarini himoya qilishda "kafolatlangan ulush" qoidasini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

9. Keyingi paytlarda xususiy mulk obyekti bo'lgan ko'chmas mol-mulkka nisbatan huquqlarni himoya qilish borasida ko'plab muammoli holatlar kuzatilmoqda. Ana shunday katta muammolardan biri mamlakatimizda huquqiy maydon tashqarisida bo'lgan, ya'ni belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan ko'chmas mol-mulk ulushining yuqoriligi hisoblanadi. Bu holat, ayniqsa, qishloq joylarida kuzatiladi va buning maqbul hamda barcha ishtirokchilar (davlat va ko'chmas mol-mulk egasi)ning manfaatlariga mos keladigan yechimi topilgani yo'q. Fikrimizcha, bu vaziyatda qishloq joylarida joylashgan ko'chmas mol-mulkka nisbatan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishning optimallashtirish mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Bunda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining xo'jalik kitobi, soliq idorasining ma'lumotlari asosida tegishli yer uchastkasining qiymatidani kelib chiqib hamda mulkdorning ijtimoiy ahvolidan kelib chiqib, onlayn kadastr ro'yxatidan o'tkazishni yo'lga qo'yish o'rinli bo'lar edi.

